

**ODAM SAVDOSI BILAN BO'G'LIQ JINOYATLAR VA BU
JINOYATLARNING BUGUNGI JAON UNIFIKATSIYALASHUV
JARAYONIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI**

*Panjiyev Sardor Zafar o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
2-o'quv kursi 204-guruh kursanti*

Аннотация: На нашей планете существует ряд глобальных проблем, среди которых транснациональные преступления, такие как торговля людьми, отличаются своей актуальностью и опасностью. Год от года увеличивается количество людей, которые страдают от этого заболевания и становятся его жертвами. Каждое из этих преступлений, не знающих границ и рубежей, представляет серьезную угрозу развитию общества и развитию стран. Такое серьезное преступление, как торговля людьми, настолько отвратительно, что нарушает жизнь, свободу и права человека, попирает его волю, судьбу и будущее.

Ключевые слова: транснациональная преступность, современное рабство, несправедливость, дискриминация, «живой продукт», трансплантология

Annotation: There are a number of global problems on our planet, among which transnational crimes, such as human trafficking, are characterized by their relevance and danger. Year by year, the number of people who suffer from this disease and become its victims is increasing. Each of these crimes, which knows no borders and borders, poses a serious threat to the development of society and the development of countries. A crime as serious as human trafficking is so disgusting that it violates the life, freedom and rights of a person and tramples on his will, destiny and future.

Key words: transnational crime, modern slavery, injustice, discrimination, "living product", transplantation

Annotatsiya: Sayyoramizda bir qator global muammolar borki, bular sirasiga bevosita odam savdosi singari transmilliy jinoyatlar o'zining dolzarbliji va xavfliligi bilan ajralib turadi. Yildan-yilga bu illatdan jabr chekayotganlar, uning qurboni bo'layotganlar soni ortib bormoqda. Hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyatning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Odam savdosidek og'ir jinoyat inson hayoti, erkinligi va huquqlarini poymol qilib, uning erki, taqdiri va kelajagini oyoq osti qilishi bilan naqadar jiirkanch ko'rinishga ega.

Kalit so'zlar: transmilliy jinoyatchilik, zamonaviy qulchilik, huquqsizlik, kamsitilish, “tirik mahsulot”, transplantatsiya

XX asr oxirlariga kelib odam savdosi butun insoniyatga qarshi asosiy tahdidlardan biri bo‘lib qoldi. Odamdan ekspluatatsiya maqsadlarida foydalanish bilan bog‘liq jinoyatlar oshib borishi tendensiyasi bunday ijtimoiy xavfli qilmishlar oxir-oqibatda jamiyatning demokratik negizlariga tajovuz qilishi bilan milliy xavfsizlikka ham tahdid soladi. Hozirgi kunda odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalib butun dunyo hamjamiyatini xavotirga solmoqda. Odam savdosi jinoiy faoliyatning o‘ta xavfli va tahqirlovchi turidir. Tahqirlanish shunda namoyon bo‘ladiki, mazkur jinoyat qullikka o‘xshash shakllarda sodir qilinadi. Bundan tashqari, insonni ekspluatatsiya qilish, insonni “tovar” sifatida sotish, inson omilllaridan foydalanish yo‘li bilan daromad orttirish bilan bog‘liqligi sababli tahqirlovchi mazmun-mohiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida O‘zbekiston Respublikasida ham qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, odam savdosi transmilliy, ya’ni hudud va chegara tanlamaydigan jinoyat ekanligi hisobga olinib, davlatimiz 2003 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1950 yilda qabul qilingan “Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to‘g’risida”gi Konvensiyaga qo’shildi.

Mamlakatimiz mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, hayotimizning barcha sohalarida huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar natijasida, bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida muayyan ishlar olib borilmoqda. Avvalo, bu davrda odam savdosi jinoyatlariga barham berishning huquqiy normativ bazasi shakllantirilgani e’tiborga loyiqidir. 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan Jinoyat Kodeksida ilk bor odam savdosiga qarshi kurashish maqsadida bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Shu bilan birga odam savdosi transmilliy, ya’ni hudud va chegara tanlamaydigan jinoyat ekanligi hisobga olinib, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan bunday salbiy holatlarga qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlikka alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida eng oliy qadriyat inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa tabiiy huquqlari bo‘lib, ularni ta’minlash Konstitutsiya bilan kafolatlanadi.

Insoniyat tarixida dastlab qullik tarzida namoyon bo‘lgan odam savdosi uzoq o’tmishga borib taqaladi, ya’ni Qadimgi Rim imperiyasida qonuniy tarzda namoyon bo‘lgan va jamiyatning ajralmas bir qismiga aylangan qulchilik davlat tuzumining

demokratik jihatini ochib bergen va aynan o'sha davrda qulchilik davlatlar rivojlanishiga turtki bo'lgan. Lekin zamonlar o'tib qulchilikka qarshi milloddan avvalgi III asrda qonun qabul qilingan va odamlar bir-birlarini bir buyum kabi sotishni sotib olishni bekor qilishgan. Keyinchalik odam savdosiga qarshi kurashish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xotin-qizlarning Evropadan Amerika va Shimoliy Afrika qit'alariga keng ko'lami migratsiyasi hamda ayollarni Evropaga sotish hodisasi kuzatilgan. Bu hodisaga barham berish maqsadida Parijda 1902 va 1910 yillarda ikkita konferensiya o'tkazilib, "Oq qullar savdosiga qarshi kurash" butunjahon Konventsiyasi qabul qilingan.

Shundan so'ng "Inson huquqlarining Evropa Konventsiyasi", "Qullik xususida"gi Konventsiya, "Qullikni yo'qotish amaliyoti to'g'risida"gi qo'shimcha Konventsiya, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konventsiya, "Ayollarga qarshi diskriminatsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurash to'g'risida"gi Konventsiyalar qabul qilinib, dunyoning ko'plab mamlakatlarida qo'llanila boshlandi.

Keyinroq ushbu konventsiya "Ayollar va bolalar savdosini yo'qotish" va "voyaga etgan ayollar savdosini yo'qotish" nomli butunjahon Konventsiyalari bilan to'ldirilgan. Odam savdosi muammosiga qarshi kurashishning keyingi tarixiy jarayonlari sekin-asta rivojlanib, 1948 yilda "Inson huquqlari" umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilingan.

2013 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 30 iyul - Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni deb e'lon qilingan. BMT va Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot mutaxassislaringning tahliliy xulosalariga ko'ra, butun dunyoda 21 million kishi majburiy mehnatning jabrlanuvchilari hisoblanadi. Dunyodagi barcha mamlakatlar odam savdosidan jabrlanishadi. Tashvishlanarlisi, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning asosiy qismini ayollar va bolalar tashkil qilmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, odam savdosi qurbanlarining 71 foizini ayollar va bolalar tashkil etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2000 yil 15 noyabrdagi rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi Konventsiya, shuningdek, odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalarni sotishning oldini olish, unga chek qo'yish va buning uchun jazolash to'g'risidagi qo'shimcha protokol ham ratifikatsiya qilindi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida xorijiy davlatlar bilan uyushgan jinoyatchilik, shu jumladan, odam savdosining xavfli ko'rinishlariga qarshi kurash haqida bir qator shartnoma va kelishuvlar imzolandi. Jumladan:

- „Dengiz kemachiligi xavfsizligiga tahdid soluvchi g’ayriqonuniy aktlarka qarshi kurash to’g’risida”gi Konvensiya (1988-yil 10-mart, Rim);
- O’zbekiston Respublikasi va Litva Respublikasi o’rtasida „Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo’yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to’g’risida”gi Shartnoma (Toshkent, 1997-yil 20-fevral);
- O’zbekiston Respublikasi va Qozog’iston Respublikasi o’rtasida „Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo’yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to’g’risida”gi Shartnoma (Olma-ota, 1997-yil 2-iyun);
- O’zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o’rtasida „Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo’yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to’g’risida”gi Shartnoma (Toshkent, 1997-yil 18-iyun);
- O’zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o’rtasida „Ekstraditsiya to’g’risida”gi Shartnoma (Pekin, 1999-yil 8-noyabr);
- „Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to’g’risida”gi Xalqaro konvensiya (1999-yil 9-dekabr, Nyu-york);
- O’zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o’rtasida „Ushlab berish to’g’risida”gi Shartnoma (2000-yil 2-may, Dehli);
- O’zbekiston Respublikasi bilan Eron Islom Respublikasi o’rtasida „Ushlab berish to’g’risida”gi Bitim (Tehron, 2000-yil 11-iyun);
- O’zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o’rtasida „Ushlab berish to’g’risida”gi Shartnoma (Dushanbe, 2000-yil 15-iyun);
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining „ Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi” konvensiyasi;
- „Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to’g’risida”gi Shanxay konvensiyasi” (2001-yil 15-iyun, Shanxay);
- O’zbekiston Respublikasi bilan Chexiya Respublikasi o’rtasida „Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo’yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to’g’risida”gi Shartnoma (Toshkent, 2002-yil 18-yanvar);
- O’zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o’rtasida „Tutib topshirish to’g’risida”gi shartnoma
 - Birlashgan Millatlar Tashkilotining „ Korrupsiyaga qarshi ” konvensiyasi;
 - O’zbekiston Respublikasi bilan Bolgariya Respublikasi o’rtasida „Tutib topshirish to’g’risida”gi Shartnoma (Sofiya, 2003-yil 24-noyabr);
 - Shanxay hamkorlik tashkilotining „ Terrorizm qarshi” konvensiyasining (2009-yil 16-iyun, Yekaterinburg) .

O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 17 aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, ushbu qonun yanada takomillashtirish va hozirgi zamon talablariga moslashtirish maqsadida unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri 2020 yil 17 avgustda qabul qilindi.

Qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish zarurati bugungi kunda odam savdosidan jabrlanganlarni himoya qilish va ularga yordam berish masalalariga doir aniq qoidalar tartibga solinmaganligi hamda voyaga etmaganlarning savdosiga qarshi kurashishni o'ziga xos xususiyatlari, shu jumladan, identifikatsiya qilish, yordam berish va himoya qilishning huquqiy maqomi aniq belgilash bilan izohlanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatsa, ularning 100 ga yaqini odam savdosiga qarshi kurashish borasida ish olib bormoqda. Qonunda mazkur yo'nalishga doir faoliyatni amalga oshirayotgan davlat organlariga ko'maklashuvchi tashkilotlar qatorida nodavlat notijorat tashkilotlari ham belgilanib, ularning vakolat va vazifalari aniq ochib berildi.

Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha milliy komissiya davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, boshqa tashkilotlarning odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kollegial organligi ta'kidlandi. Milliy komissiyaning qarorlari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan bajarilishi shartligi, nodavlat notijorat tashkilotlari uchun esa tavsiyaviy xususiyatga ega ekanligi belgilandi.

Qonunning qabul qilinishi odam savdosidan jabrlangan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilishga xizmat qiladi.

Aytish lozimki, bugungi kunga kelib odam savdosining avj olishiga, ya'ni insonni qandaydir bir buyum sifatida, insonni oldi-sotdining ob'ekti sifatida foydalaniishi, ularning huquq va erkinliklarining poymol etilishiga quyidagilar sabab bo'lmoqda:

- odam savdosi kabi noqonuniy faoliyat turi bir yoki bir necha a'zolardan iborat guruhlarning serdaromad manbasiga aylanib borayotgani, ya'ni ularning hech qanday og'ir va mashaqqatli mehnatlarsiz mo'may daromad olishga urinayotganligi;

- odam savdosining qurbaniga aylanayotgan shaxslarning soddaligi, o'zining, yaqinlarining taqdiriga va kelajagiga befarqligi, loqaydligida. Ya'ni eng oliv ne'mat hisoblanmish erkin hayot tushunchasiga nisbatan engil va beparvolik bilan qarashlari oqibatida ushbu odam savdosini amalga oshiruvchi jinoyatchilarning o'ljasiga, aniqrog'i ularning oson daromad manbaiga aylanib qolmoqdalar;

- odam savdosini amalga oshiruvchi jinoyatchi shaxslar o'zlarining tanishlari, yaqin qarindoshlariga nisbatan, ya'ni ularning ishonchiga kirib olib, ularning odam savdosini qurbaniga aylanib qolishiga sababchi bo'layotganligida;

- odam savdosining qurbaniga aylanayotgan shaxslarning or-nomus qilib, ko'rgan xo'rliklari, ularga nisbatan ishlatilgan turli xildagi jismoniy yoki ruhiy tazyiqlar haqida yohud o'zining noqonuniy ravishda chegarani buzib chiqib, chet davlatda hech qanday davlat ro'yxatidan o'tmasdan, noqonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirganligidan qo'rqib bular haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmasligi.

O'zbekiston odam savdosiga qarshi kurashishga oid qator xalqaro hujjatlarni, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyasini, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ushbu Konvensiyasini to'ldiruvchi "Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosini oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqida"gi Protokolni ratifikatsiya qildi, "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" Qonun qabul qilindi va xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishga doir tegishli o'zgartirishlar kiritdi.

Oldi-sotdi tariqasidagi odam savdosi odamning bir shaxs tomonidan boshqasiga pul, boshqa moddiy qimmatliklar (mulk), mulkiy xarakterdagi xizmatlar, mulkiy yoki pul shaklidagi qarzdan voz kechish va h.k.lar sifatidagi haq evaziga berilishi to'g'risida yozma yoki og'zaki bitim tuzilishini nazarda tutadi.

Odami mehnati va xizmatlaridan mehnat, fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq (masalan, qurilish yoki maishiy pudrat, haq evaziga xizmat ko'rsatish, yo'lovchi va yuk tashish, transport ekspeditsiyasi va h.k. shartnomalar bo'yicha) foydalanilgan barcha hollarda odam ekspluatatsiyasi mavjud bo'lmaydi.

Odamni ekspluatatsiya qilish boshqa shaxslar fohishabozligidan foydalanish yoki boshqa ko'rinishdagi shahvoniy ekspluatatsiyani, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o'xshash odatlar, erksizlik holati yoki odam a'zolari yoki to'qimalari olinishini anglatadi.

Fohishabozlikda foydalanish deganda, odamdan uning haq evaziga nomuayyan doiradagi jinsiy sheriklar bilan shahvoniy munosabatlarga kirishishidan muttasil foydalanish tushuniladi. Boshqa ko'rinishdagi shahvoniy ekspluatatsiya deganda, odamning undan pornografik tasvirlar tayyorlash, buzuq harakatlar sodir etish va h.k. maqsadlarda foydalanish uchun berilishi tushuniladi.

Erksizlik holati - shaxsning muayyan omillar majmui ta'siri ostida o'z erkiga xilof ravishda har qanday ish yoki xizmatni bajarishga majbur bo'lganligini anglatadi.

yollash deganda, ekspluatatsiya qilish maqsadida odamni biror-bir faoliyat bilan shug‘ullanishga jalg etishga qaratilgan faoliyat (ekspluatatsiya obyektini qidirish, to‘plash, u bilan muzokara yuritish va h.k) tushuniladi;

tashish — shaxsni olish-sotish bitimi tuziladigan (ijro etiladigan), boshqa shaxsga topshiriladigan joyga yoki undan ekspluatatsiya maqsadida foydalaniladigan joyga yetkazib berish (transportda tashish)ni anglatadi. Bunda yetkazib beriladigan shaxs odam savdosini amalga oshirish uchun mo‘ljallanganligi tashuvchiga oldindan ma’lum bo‘lishi lozim.

topshirish — odamni boshqa shaxsga ekspluatatsiya qilish maqsadida jismoniy tarzda berishda ifodalanadi;

yashirish — jabrlanuvchini hokimiyat vakillaridan, qarindoshlaridan yoki uning taqdiridan manfaatdor boshqa shaxslardan har qanday joyda xufiya saqlashda ifodalanadi;

qabul qilish — odamni o‘z maqsadlarida ekspluatatsiya qilish uchun egalikka olish (masalan, hadya tariqasida, vaqtincha tekin foydalanish uchun yoki qarz evaziga va h.k.) ni anglatadi, odamni sotib olish hollari bundan mustasno.

O‘g‘irlash deganda, odamni qonunga xi洛f ravishda, yashirin yoki oshkora qo‘lgan kiritish va uning erkiga xi洛f ravishda uni olish-sotish yoki ekspluatatsiya qilish maqsadida boshqa joyga olib ketish tushunilishi lozim.

Zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish deganda - bog‘lash, ozodlikdan mahrum etish, urish-do‘pposlash, ushlab turishdan boshlab, jabrlanuvchining sog‘lig‘iga yengil yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish, shuningdek, jabrlanuvchining sog‘lig‘iga ziyon yetkazmagan bo‘lsada, biroq qo‘llanilgan paytda bunday ziyon yetkazishga real imkoniyat tug‘dirgan zo‘rlikkacha bo‘lgan har qanday majburlash tushunilishi lozim.

Moddiy qaramlik, jumladan, jabrlanuvchi aybdorning to‘liq yoki qisman qaramog‘ida bo‘lganligani, qarzdorning kreditorga muteligini va h.k.ni anglatadi.

Boshqa jihatdan qaramlik deganda, jabrlanuvchining aybdorga har qanday nomoddiy qaramligini (masalan, oilaviy munosabatlar, tobe shaxsning rahbariga, o‘quvchining o‘qituvchiga qaramligini) tushunish zarur.

Jabrlanuvchini chet elda qonunga xi洛f ravishda ushlab turish uning diplomatik yoki konsullik muassasalari bilan aloqa bog‘lash imkoniyatidan mahrum qilganida namoyon bo‘ladi.

2010 yil 30 iyulda BMTning Bosh Assambleyasi 64/293-rezolyusiyasi bilan Odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha BMTning Global harakat dasturi qabul qilingan.

Mazkur harakatlar dasturida ushbu jinoyatning oldini olish, jabrdiydalarning himoyasi, jinoyatchilarni ta'qib etish va barcha yo'naliishlarda hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Uning bozori giyohvandlik vostalari va qurol-yarog' savdosidan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Mazkur turdag'i jinoyat natijasida dunyo bo'yicha amalga oshiriladigan yillik aylanma 50 mlrd. AQSh dollardan ortiqni tashkil qiladi.

Uyushgan jinoyatchilik, xususan xalqaro terrorizm, narkobiznes, qurol-aslahalarni noqonuniy sotish bilan bog'liq o'ta og'ir jinoyatlar qatorida odam savdosining har qanday ko'rinishlariga qarshi kurash muammosi nafaqat xalqaro huquq, milliy huquq tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu muammo umumjahon miqyosda e'tirof etilib, ko'pgina olimlar va tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilayotganligiga qaramasdan, bu borada hozirga qadar yetarlicha umumlashgan ma'lumotlar taqdim etilmagan. 2000 yildagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining "BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konventsiyasiga odam savdosi va ayniqlsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish va taqilash hamda bunday xatti-harakatlarga nisbatan jazo qo'llash to'g'risidagi qo'shimcha Bayonnomaga"da "odamlar savdosi" tushunchasi o'zining rasmiy izohiga ega bo'ldi.

Bayonnomaga binoan, "odamlar savdosi" eksplutatsiya qilish maqsadida odamlarni kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan qo'rqtib yoxud boshqacha majburlash choralarini qo'llab yoxud o'g'irlab yoki firibgarlik yo'li bilan yoxud aldash yoki davlat vakolatlarini, tutgan mavqeini suiiste'mol qilgan holda yoki bir shaxsning nazoratidagi boshqa bir shaxsni sotib olish yo'li bilan ularni yollash, o'tkazish, tashish, saqlash yoki ularni olish hisoblandi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurash borasida odam savdosi jinoyatiga qarshi kurashishning huquqiy asosini takomillashtirish; odam savdosiga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati; unga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik; profilaktik xarakterdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Odam savdosiga qarshi kurashish qonuniylik, odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar javobgarligining muqarrarligi, odam savdosidan jabrlanganlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy himoyalash kabi printsiplarga asoslanadi

Odamlar savdosi muammosiga qarshi kurashishda aholining bu boradagi bilimlarini oshirish, ommaviy axborot vositalari orqali uning qurbanlari bilan suhbatlar uyshtirish, odam savdosining butun mudhish holatlarini tasvirlab berish, shuningdek, maktablarda,

mahallalarda va uning ichidagi oilalarda tushuntirish ishlarini olib borish ham samarali vositalardir. Butun aholi, ayniqsa, yoshlar ushbu jinoiy qilmishning qurbaniga aylanib qolmasliklari uchun ehtiyyot bo'lishlari, xorijiy mamlakatlardan taklif etilayotgan har qanday ish, xizmatlarni shaxsan o'zлari tekshirib ko'rishlari, notanish shaxslarning takliflariga ishonmaslik hamda ularga o'z hujjatlarini berib qo'ymaslik lozimligini bilishlari kerak va „g'amxo'rlik qilayotganlar”ga ishonish esa juda qimmatga tushayapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rustamboyev.M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.- T., “O'qituvchi” 2000.- 560b
2. Rustamboyev.M.X. Odam savdosi. – T: TDYI nashriyoti.
3. Fozilov. I.Y. Odam savdosi- global muammo, unga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va birdamlik darkor// O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi,2009.
4. J.Bazarbayev va mualliflar jamoasi. Odam savdosi- qullik kishani. Toshkent, 2013